
Soliqchi - komakchi tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Fargona shahar soliq inspeksiyasi boshligining hisoboti

2023-yil 1-yanvardan boshlab soliq qonunchiligiga qator o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, aylanmadan olinadigan soliq stavkalari soliq to'lovchilarning barcha toifalari uchun 4% miqdoridagi yagona stavkani belgilagan holda bixillastirildi.

Bundan tashqari, 2023-yil 1-yanvardan boshlab aylanmadan olinadigan soliqni qat'iy belgilangan summada to'lash tartibi joriy etildi. Shuni ta'kidlash joizki, mazkur tartib bo'yicha soliq to'lash ixtiyoriy hisoblanadi. Ushbu tartibni tanlash tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi yengilliklarni yaratib beradi: -soliq organlariga moliyaviy hisobotlar va aylanmadan olinadigan soliq hisobotini taqdim etish majburiyati yuzaga kelmaydi; -bank hisobvarag'idan dividend tarzida yechib olinadigan mablag'lar soliqqa tortilmaydi; -tovarlar hisobini yuritish talab etilmaydi.

Ta'kidlash joiz, ayni paytda Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Binobarin, havo haroratining keskin sovib ketishi oqibatida qiyinchiliklarga duch kelgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va faoliyatini jadal qayta tiklash maqsadida "Havo harorati keskin sovib ketishining iqtisodiyotga salbiy tasirini kamaytirish uchun tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'grisida"gi Prezident qarori (PQ43-son, 03.02.2023 y.) qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, tadbirkorlarning 2023-yil 1-yanvarga nisbatan 1-fevral holatiga oshgan (hosil bo'lgan) soliq qarzini 2023-yil 1-martdan 1-iyulgacha foizlarsiz, qo'shimcha shartlar qo'ymasdan va ta'minot talab etmasdan teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi.

Shuningdek, tadbirkorlarning soliq qarziga penya hisoblash 2023-yil 1-aprelgacha to'xtatiladi. Bundan tashqari, tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlik uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarga 2023-yil 1-aprelgacha jarimalar qo'llanilmaydi. Albatta, qiyinchiliklarga uchragan tadbirkorlarga soliq xizmati organlari "Soliqchi-ko'makchi" tamoyili asosida xizmat ko'rsatishni davom ettiradilar.

Ayni kunlarda Farg'ona shahar soliq inspeksiyasi xodimlari tomonidan tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, muammolar o'rganilib ijobiy hal etish choralari ko'rilmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bolgan qator yo'nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Xususan, 2023-yil mart oyi davomida Fargona shahar soliq inspeksiyasi tomonidan 438 ta tadbirkorlik subyektlarini qiynayotgan muammolar o'rganildi. Mazkur jarayon davomida ko'maklashish zarur bo'lgan 438 ta tadbirkorlik subyektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo'llash tartibini tushuntirish, ortiqcha QQS to'lovlarini qaytarish kabi masalalar yuzasidan amaliy yordamlar ko'rsatildi.

Biz, soliq idoralari xodimlari bundan buyon ham, albatta, Prezidentimiz belgilab berganlaridek, tadbirkorga maslahatchi, ko'makchi va yaqin hamkor sifatida faoliyatimizni davom ettiramiz.

Q.Bekmirzayev, Inspeksiya boshligi.

2023-04-18 12:09:39